

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK SUDLARIDA SUD XARAJATLARINING O'ZIGA XOS JIHLARI

**Ro'zimatov Javohir Jaxongir o'g'li**

Toshkent davlat transport universiteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14497305>

***Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarida qilingan yuridik ahamiyatga molik ish-harakatlar uchun amalda undiriladigan sud harajatlariga batafsil to'xtalganmiz. Fuqarolik ishlar bo'yicha sud harajatlarini belgilanishi, undirilish tartib taomillari hamda ularning miqdorlari va ularni hisoblanish tartiblari to'g'risida tegishli qonun hamda qonun osti hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi oliy sudi va Vazirlar Mahkamasining tegishli plenum qarorlariga asosan yoritib o'tganmiz.*

***Kalit so'zlar:** Davlat boji, da'voning bahosi, davlat bojidan ozod qilish, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar, sud xarajatlarini to'lashni kechiktirish, o'rtacha ish haqi, vakilning yordami uchun haq to'lashga doir xarajatlar, sud xarajatlarini taraflar o'rtasida taqsimlash, sud xarajatlari bilan bog'liq ajrimlar va boshqalar.*

### SPECIFIC ASPECTS OF COURT COSTS IN CIVIL COURTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

***Abstract.** The article deals in detail with the court costs actually charged for legally significant actions taken in the civil courts of the Republic of Uzbekistan. We have discussed the determination of court costs in civil cases, the procedure for their collection, as well as their amounts and procedures for calculating them, based on relevant laws and regulations, as well as the relevant plenum resolutions of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan and the Court of Ministers.*

***Keywords:** State duty, cost of the claim, exemption from state duty, amounts payable to witnesses, experts, specialists, translators, delay in payment of court costs, average work fee, costs of payment of fees for the assistance of a representative, distribution of court costs between the parties, awards related to court costs, etc.*

### ОСОБЕННОСТИ СУДЕБНЫХ РАСХОДОВ В ГРАЖДАНСКИХ СУДАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

***Аннотация.** В статье мы подробно остановились на судебных расходах, которые фактически взимаются за юридически значимые действия, совершаемые в гражданских судах Республики Узбекистан. В соответствии с соответствующим законом и подзаконными актами об определении судебных издержек по гражданским делам, порядке их взыскания и их размерах, а также порядке их исчисления Верховный Суд Республики Узбекистан и Мы пояснили на основе соответствующих пленарных решений Кабинета Министров.*

***Ключевые слова:** Государственная пошлина, стоимость иска, освобождение от госпошлины, суммы, подлежащие выплате свидетелям, экспертам, специалистам, переводчикам, судебные издержки. отсрочка платежа, средняя заработная плата,*

*расходы, связанные с оплатой помощи представителя, распределение судебных расходов между сторонами, определения, связанные с судебными расходами и другие.*

### **Asosiy qism**

Sud xarajatlari - ishni sudda ko'rish bilan bog'liq taraflarning, mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shahslarning va alohida ish yuritish tartibida murojaat qiladigan arizachilarning zimmasiga yuklanadigan pul mablag'larining sarfidir.<sup>1</sup> Ishda ishtirok etuvchi shahslarning va sudning ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlari siz shartli ravishda ikki guruhga bo'lib olishingiz mumkin: birinchidan, **davlat boji** - yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shahslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lov; ikkinchidan, **Ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar** - guvohlar, ekspertlar, mutahassislar, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar. Joyga borib ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar. Javobgarni qidirish uchun qilingan harajatlar, sudning hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog'liq xarajatlar hisoblanadi.<sup>2</sup>

Davlat boji ariza, da'vo arizasi shikoyat sudga berilgunga qadar to'lanadi, agar qonunda boshqacha belgilanmagan bo'lsa (masalan, to'lovchi davlat bojini to'lashdan ozod qilingan, davlat boji to'lash kechiktirilgan yoki bo'lib-bo'lib to'lanadigan hollarida). Davlat bojini naqd pulsiz shaklda to'laganligi fakti qog'ozdagi yoki elektron shakldagi to'lov hujjati bilan tasdiqlanadi.

Davlat bojini naqd pul shaklida to'laganligi fakti: bank tomonidan to'lovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitansiya bilan; belgilangan shaklda to'lovni amalga oshirgan mansabdor shaxs yoki davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan to'lovchiga beriladigan kvitansiya bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga sizda agar chet el fuqarosi, yuridik shaxsi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan bog'liq masalalarda qanday tartib belgilangan degan savol tug'ilishi tabiiy albatta, agar bunday holat yuzaga kelgan taqdirda Oliy sud plenumning «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'risida»gi qaroriga<sup>3</sup> muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada belgilanishi va undirilishi belgilab o'tilgan.

Da'voning bahosini belgilash sudlarda mol-mulkning qiymatidan kelib chiqib belgilanadi, agarda davlat boji belgilanishi lozim bo'lgan nizoli predmet uchun muqobil qiymat mavjud bo'lmagan taqdirda uning bahosi tegishli qonun normalariga asoslangan holatda sudyaning o'zi tominidan belgilanishi mumkinligi fuqarolik protsessual kodeksi 130-moddasida keltirib o'tilgan.

Davoning bahosini belgilash qiyin bo'lgan holatda esa sudya tomonidan protseduralarga (ilgari shu kabi holat bo'yicha ko'rilgan sud jarayoni) asosan belgilanadi va sud jarayoni yakuniga yetganidan so'ng ortiqcha undirilgan pul qaytarib beriladi yoki davoning qolgan qismi uchun qo'shimcha davlat boji to'laydi. Sud jarayonida davoning hajmi qisqarishlik oqibati kelib chiqqan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-martdagi O'RQ-757-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.03.2022-y., 03/22/757/0181-son

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-496-sonli Qonuniga asosan 31-band bilan to'ldirilgan Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.11.2009 yildagi 14-sonli Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risidagi qaror Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; <https://lex.uz/docs/-1617259>

holatlar da'voning bahosini qayta hisoblash chiqish majburiyatini yuzaga keltirmaydi ya'ni davoning bahosi uchun to'langan davlat boji qaytarib berilmaydi.

Davlat bojidan ozod qilish esa davlat boji to'g'risidagi qonunga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda 40 dan ziyod holatlar keltirib o'tilgan (Davlat boji to'g'risidagi qonunning 8-moddasi ) ularni shartli ravishda 3 toifali holatlarga bo'lib o'rganish mumkin. Bular: jismoniy shaxslar, yuridik va jismoniy shaxslar birgalikda hamda davlat organlaridir.

Jismoniy shaxslar ish haqini undirish, qonunga hilof ravishda hukm etganlik, jinoiy javobgarlikka tortganlik, alimentlar undirish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga yetkazilgan ma'naviy va moddiy zararining o'rnini qoplash va boshqa masalalarda sudga huquqlarini talab qilib yo'llagan da'volari uchun davlat bojidan ozod qilinadi. Yuridik va jismoniy shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilinishini so'rab, davlat ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlar yuzasidan va boshqalar yuzasidan qilgan murojaatlari uchun davlat bojidan ozod etiladi. Davlat organlari esa yuridik va jismoniy shaxslar manfaatlarini himoya qilish uchun yoki o'zlariga tegishlik jihatdan bog'liq bo'lgan huquqbuzarlik uchun sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilganda davlat bojidan ozod etildi.

Bunga amaliy misol qilib O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, uning joylardagi organlari - yer to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi bilan bog'liq da'volari bo'yicha o'tkazilgan sud jarayoni uchun davlat bojidan ozod etiladi.

Ishga ko'maklashuvchi shaxslar (guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlar) hamda jabrlanuvchilar tomonidan sarflangan xarajatlarni, bajarilgan ishlar uchun tegishli tartibda haq undirildi. Ekspert va mutaxassisga mas'ul organlar (mansabdor shaxslar) topshirig'iga ko'ra bajargan ishi uchun soatiga bazaviy hisoblash miqdorining 0,10 koeffitsiyenti ya'ni hozirgi kun hisobi bilan hisoblaganda Bazaviy hisoblash miqdori 375 ming so'm uning 10 foizi esa 37.5 ming so'm miqdorida haq to'lanadi. Tarjimon uchun alohida tartib belgilangan bo'lib ular har bir qilgan ishi uchun alohida haq to'lanadi. Misol uchun Og'zaki tarjimaning bir soati uchun

Bazaviy hisoblash miqdorining 0,15-0,75 koeffitsiyent (tillar kesmiga ko'ra belgilanadi), yozma tarjima uchun (1 800 bosma belgi uchun) Bazaviy hisoblash miqdorining 0,05- 0,2 koeffitsiyent, surdo( belgi) tili bo'yicha tarjimaning bir soati uchun Bazaviy hisoblash miqdorining 0,15 koesffitsent uchun miqdorini tashkil etadi. Guvoh va ishga jalb etilgan boshqa holislar chalg'itilgan vaqtlari uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kelib chiqqan holatda haq to'lab beriladi. Bulardan tashqari ishga ko'maklashuvchi shaxslarning turar joy va transport harajatlari ham qonunchilikda belgilangan tartibda to'lab beriladi, shuningdek kundalik xarajatlar uchun ovqatlanish (alkogol va tamaki mahsulotlari bundan mustasno) xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (cheklar) taqdim etilganda har bir soati uchun Bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizigacha miqdorda to'lab beriladi<sup>4</sup> (jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash tartibi to'g'risidagi qonunning 2-bobi).

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.10.2023 yildagi 570-sonli "Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risidagi " qarori Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2023-y., 09/23/570/0804-son

Sud xarajatlarini to'lashni kechiktirishga qonunchilikda keltirilgan holatlardagina yo'l qo'yiladi. Fuqarolik pratsessual kodeksi 133-moddasiga asosan ham jismoniy, ham yuridik shaxsdan davlat foydasiga undiriladigan sud xarajatlarini kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki miqdorini kamaytirish masalasini hal qilishda, sud ularning bu xarajatlarni qisman yoki bir yo'la to'lashga qurbi yetmasligi holatlarini tasdiqlovchi holatlar mavjudligi haqidagi dalillarni (masalan, ish haqi (daromadi), bankda mablag'lari mavjudligi, uning egaligida bo'lgan mulklar haqidagi ma'lumot, voyaga yetmagan farzandlari, boshqa boqimandalari borligi va h.k. to'g'risidagi ma'lumotlarni) tekshirishi lozimligi haqida qonun hujjatlarida keltirib o'tilgan.

Vakilning yordami uchun haq to'lashga doir xarajatlar Fuqarolik pratsessual kodeksi 136-moddasida ko'rsatilgan tartibda ushbu kodeks 65-67-moddalarida ko'rsatib o'tilgan vakillar uchun u tomonidan sarflangan xarajatlar oqilona miqdorda (sud tomonidan belilangan) to'lanadi.

Qonunchilikka asosan hal qiluv qarori qaysi taraf (da'vogar yoki javobgar) foydasiga chiqarilgan bo'lsa aynan o'sha taraf sud xarajatlari to'lashdan ozod etiladi va agar u da'vogar hisoblanib sud harajatlarini oldindan to'lagan bo'lsa qonunchilikda belgilangan tartibda qaytarib undirib beriladi. agar ko'rsatilgan da'vo arizasini bir qismi qanoatlatirilsa ayan o'sha qismi doirasida sud xarajatlari davogar va javobgar o'rtasida taqsimlanadi. agar da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechsa, uning xarajatlarini javobgar to'lamaydi. Lekin talab qo'yilgandan so'ng ularni javobgar ixtiyoriy ravishda qanoatlantirganligi natijasida da'vogar o'z talablaridan voz kechgan bo'lsa, sud da'vogarning iltimosi bo'yicha uning ish yuzasidan qilgan hamma sud xarajatlarini javobgardan undirib beradi.<sup>5</sup> Arz qilingan talablarni qanoatlantirish rad etilgan taqdirda sudning ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlari da'vogardan davlat daromadiga undiriladi.

Agar arz qilingan talablar qisman qanoatlantirilgan, javobgar esa, sud harajatlarini to'lashdan ozod qilingan bo'lsa, sudning ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlari sud harajatlarini to'lashdan ozod qilinmagan da'vogardan talablarining rad etilgan qismiga mutanosib ravishda davlat daromadiga undiriladi. agar har ikki taraf ham sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilingan bo'lsa, sudning ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlari davlat hisobiga o'tkaziladi. Javobgarni qidirish e'lon qilingan bo'lsa, sud qidiruv ishi bo'yicha qilingan xarajatlarni javobgardan davlat daromadiga undiradi

Sud xarajatlari noto'g'ri undirilgan holatlar aniqlanganda, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudlarda protsessual qonunda ko'rsatilgan hollarda va tartibda, sud xarajatlarini undirishga, ularni to'lashdan ozod qilishga, shuningdek undirilgan summa miqdorini kamaytirishga yoki ularni taraflar o'rtasida qayta taqsimlashga haqli.

Ishni ko'rish bilan bog'liq sud xarajatlarining joriy etilishidan ko'zlangan maqsad davlatning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash emas, balki asossiz nizolar qo'zg'atilishining oldini olish ekanligini yodda tutishimiz lozim. Sud xarajatlari yuqorida keltirilgan tartibda aholining o'rtacha daromadlaridan kelib chiqib belgilanadi, bunga amaliy misollar yuqorida ekspert, guvoh, mutahasis yoki bo'lmasa tarjimonlarning bajargan ishlari doirasidan qanday belgilanganligidan ko'rishimiz mumkin.

<sup>5</sup> Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик процесси: ўқув қўлланма / М. М. Мамасиддиқов. –Тошкент: Baktria press, 2014. – 424б 188-bet

Davlat boji belgilanishi asossiz nizolorni sonini ortishi uchun muhim bo'lsa ishda ko'maklashuvchi shaxslar uchun ularning xarajatlari qoplanishi sudda ko'rilayotgan ish yuzasidan adolatli hukm chiqarilishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi ya'ni bu yerda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya holatlarining oldi olinadi . Da'voning bir qismi qanoatlanirilganda yoki mediatsiya tartib-taomili qo'llanilganda sud xarajatlari belgilangan tartibda ikki taraf o'rtasida bo'linishi ham sudning odillik , adolatlilikni taminlash vositasi hisoblanib juda muhim jarayon sanaladi. Davlat organlari ko'p hollatlarda sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilganda davlat bojidan ozod qilinishlik holatlarini kuzatish mumkin.

### REFERENCES

1. Фуқаролик ишлари бўйича судга мурожаат қилиш тартиби Х.Ёдгоров, Б. Саидмуратов Амалий қўлланма 2-нашр Baktria press Тошкент – 2017
2. Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик процесси: ўқув қўлланма / М. М. Мамасиддиқов. – Тошкент: Baktria press, 2014. – 424  
Normativ-huquqiy hujjatlar
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.11.2009 yildagi 14-son
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Davlat boji to'g'risidagi 06.01.2020 yildagi O'RQ-600-sonli qonun
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.10.2023 yildagi 570-sonli "Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risidagi " qarori Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2023-y., 09/23/570/0804-son
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori „Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risida 2018-yil 30-noyabrdagi 34-sonli
8. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan undirilgan davlat boji va boshqa yig'implarning budget tizimiga tushumlarini hisobga olish tartibi to'g'risida nizom.  
Foydalanilgan saytlar
9. <https://lex.uz>
10. <https://nor.uz>
11. <https://advice.uz>